

MIRZO ULUG`BEKNING ILMIY MEROSI

M.M. Gadayeva

Osiyo xalqaro universiteti

“Tarix va filologiya” kafedrasi o`qituvchisi

Maxmudova Maxfirat Umid qizi

Osiyo xalqaro universiteti 4-BT-24 guruh talabasi

+998-50-109-70-61 Makhmudova706@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14735225>

Annotatsiya. Bugungi rivojlanib borayotgan intellektual asrimizda jamiyatimiz tomonidan foydalanilayotgan har qanday qurilma, butun dunyo, xoh Osiyo, xoh Yevropa mintaqasida yashovchi aholi hayotiga yengillik kiritgan, hayotlarining barcha sohasida, jumladan, meditsina, astronomiya, arxitektura kabi bir necha sohasida faoliyat olib borayotgan har bir inson, ajdodlarmiz qilgan harakatlari samarasini guvohi bo'lyabdi desak, hech ham mubolag'a bo'lmaydi.

Kalit so'zlar: astronomiya, jug'rofiy tadqiqotlar, rasadxona, Qozizoda Rumi, Yevropa, ilmiy izlanishlar.

Abstract. In today's developing intellectual age, every device used by our society has made life easier for people worldwide, whether they live in Asia, Europe, or elsewhere. In every area of life, including fields such as medicine, astronomy, and architecture, each individual is witnessing the fruits of our ancestors' efforts. It would not be an exaggeration to say this.

Keywords: astronomy, geographical research, observatory, Kazizoda Rumi, Europe, scientific researchs, conclusion.

Аннотация. В сегодняшний развивающийся интеллектуальный век любое устройство, используемое нашим обществом, принесло облегчение жизни людей, живущих во всем мире, будь то в Азии или Европе, и каждого человека, действующего во всех сферах своей жизни, включая медицину, астрономию, архитектуру и т. д., не будет преувеличением сказать, что мы являемся свидетелями результатов действий наших предков.

Ключевые слова: астрономия, географические исследования, обсерватория, Казизода Руми, Европа, научные исследования, заключение.

(Buyuk allomaning xotirasini yod etib...Ulug`bekning 630 yilligiga bag`ishlanadi)

Barchamizga ma'lum, bugungi hayotimizning deyarli ajralmas qismini raqamli texnologiyalar, shu jumladan turli xildagi internet saytlarisiz tasavvur qilish anchayin mushkul.

Kundalik hayotimizda katta rol o'ynaydigan ushbu qurilmalar zamirida ota-bobolarimiz zahmati beqiyos. Yashayotgan zamonamiz soat sayin yangilanib borayotgani ham hech birimizga sir emas. Bunday natijalarga erishishimiz o'zidan-o'zi bo'lmagan. Anchayin zahmatlar, harakatlar natijasini bugungi kunda ko'rayapmiz. Aslidachi? Aslida bunga sabr, aql-zakovat hamda vaqt talab etilgan. Bugungi maqola doirasida anashunday farovon hayotimizda o'z hissasini qo'shgan buyuk shaxs - Temuriyzodalar sulolasining yirik vakili hamda jahon ilm-fan taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shgan va asrlar mobaynida fan olamida o'zining ilmiy ishlari bilan hurmat qozongan shaxs bo'lmish Mirzo Ulug'bek haqida baholi qudrat to'xtalib o'tamiz.

Mirzo Ulug'bekning to'liq ismi **Mirzo Muhammad Tarag'ay ibn Shoxruh** bo'lgan.

U xalq orasida "Ulug'bek" nomi bilan mashhur bo'lib, bu unvon uning yuksak mavqei va ilmdagi ulkan yutuqlarini aks ettiradi. U Amir Temurning nabirasi va Shoxrux Mirzoning o'g'li edi. U 1394-yil 22-mart kuni Sultoniya (hozirgi Zanjan provinsiyasi, Eron hududi)da tavallud topgan. Sharofiddin Ali Yazdiy "Zafarnoma" asarida yozishicha, Amir Temur huzuriga chopar kelib, nevarasining tug'ilgani va munajjimlar chaqaloqning ham olim, ham hukmdor bo'lishligini bashorat qilganliklari xushxabarini yetkazadi. Sohibqiron xursand bo'lib, unga Muhammad Taragay va Ulug'bek deb ism qo'yadi. Amir Temur Mirzo Ulug'bek tarbiyasiga alohida ahamiyat bergan va uni davlat ahamiyatiga molik tadbirlarda qatnashtirgan. Klavixoning ma'lumotlariga ko'ra, Ulug'bek bobosining xorijiy elchilarini qabul qilish marosimlarida ishtirok etgan.

Otasi Shohrux Mirzo davrida Movarounnahr hokimi va otasi vafot etgach butun Temuriylar imperiyasi sultoni (1447-1449) bo'ldi. Dastlab uning hukmronligi Samarqand, Buxoro, Nasaf viloyatlari bilan cheklangan. 1412- yil Movarounnahr va Turkiston hokimiyati 18 yoshli Ulug'bek qo'lga o'tgan va 40 yil davomida mamlakatni boshqargan. Taxminlarga ko'ra besh tilni: arab, fors, mo'g'ul va oz miqdorda xitoy tillarini ham bilgan. Hukmronligi davrida uning e'tibori va homiyligi tufayli temuriylar uyg'onish davrining madaniy cho'qqisiga erishdi. Trigonometriya va sferik geometriya kabi astronomiya bilan bog'liq matematika sohasidagi ishlari, shuningdek, san'at va intellektual faoliyatga umumiy qiziqishlari bilan ajralib turgan. Yoshlik yillarida o'z davrining olim-u fuzalolaridan tahsil oladi. Uning tarbiyachilari orasida eng mashhur olimlar Qozizoda Rumi, Jamshid Koshiy va Ali Qushchi kabi shaxslar bo'lgan. Ushbu olimlar yordamida astronomiya, matematika va boshqa fanlar bo'yicha chuqur bilim oldi.

U payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v)ning "Beshikdan qabrgacha ilm izla", degan hadislariga doimo amal qilgan. Ulug'bek Ahmad Farg'oniy, Forobiy, Muso Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Umar Hayyom asarlarini o'rganadi. Bu mutafakkirlar orqali yunon olimlari Aflotun, Arastu, Gipparx, Ptolomey bilan tanishadi. G'iyosiddin Jamshid Koshoniyning yozishicha, Ulug'bek donishmand bo'lgan. Qur'oni karimning aksariyat qismlarini yoddan bilgan. Ulug'bek davrida Samarqand shahri yanada ravnaq topgan. Shaharda hunarmandchilik, me'morlik, adabiyot, umuman ilm-fan yuksaldi, savdo taraqqiy etdi. Davlatshoh Samarqandiy "Tazkirat-ush shuaro"sida shunday yozgan: "Olim, odil, g'olib va himmatli podshoh Ulug'bek Ko'ragon yulduzlar ilmida osmon qadar yuksalib bordi, maoniy ilmida qilni qirq yordi. Uning davrida fozillar martabasi cho'qqiga ko'tarilgan. Fozillaru hakimlarning yakdil fikrlari shuki, islomiyat zamonida, balki Iskandar Zulqarnayn davridan to shu damgacha Ulug'bek Ko'ragondek olim va podshoh saltanat taxtida o'tirmagan. U otasi Shohruh bahodir hukmronligi davrida Samarqand va Movarounnahrni qirq yil mustaqil idora etdi." Ulug'bek Buxoroda(1417), Samarqandda(1420), G'ijduvonda(1432-33)madrasalar va Marvda hayriya muassalarini barpo qildirgan. Madrasalarda diniy fanlar bilan birgalikda dunyoviy fanlar ham o'qitildi, ko'proq aniq fanlarga e'tibor qaratildi. ***"Din tuman kabi tarqalib ketadi, Shohliklar qulaydi, ammo olimlarning asarlari abadiy qoladi"*** (Mirzo Ulug'bek).

Mirzo Ulug'bekning fanlarga qo'shgan hissasi haqida to'xtalamiz:

1. Asrtonomiya sogasidagi xizmatlari. Ulug'bekning eng buyuk yutug'i - Samarqandda qurilgan Ulug'bek rasadxonasi edi. 1428-yilda Samarqandning Ko'hak tepaligida bunyod etilgan va balandligi 31 m keladigan bu rasadxona o'z davrining eng rivojlangan astronomik markazlaridan biri bo'lib, o'sha davr islom olami va Markaziy Osiyoning eng yirik rasadxona dunyodagi eng yirik kuzatish asboblari bilan jihozlangan edi. Eng mashhur ilmiy asari – **"Zij –i Ko'ragoniy"** (Ulug'bek zijji). Bu asarda 1018 ta yulduzning aniq koordinatalari va joylashuvlari keltirilgan bo'lib, ushbu yulduz jadvali XVII asrgacha astronomiyda qo'llanilgan. «Ziji Ko'ragoniy» jadvallarining qariyb 80 foizi Quyosh, Oy va beshta sayyoraga bag'ishlangan.

Bu jadval ma'lumotlari asosida «Ulug'bek zijji»ning so'ngida astrologiya ehtiyoji uchun zarur bo'lgan bir necha jadvallar keltirilgan. 430 sahifali «Ziji Ko'ragoniy»ning atigi 5 foizi yulduzlar jadvalini tashkil etadi. Ulug'bek akademiyasidagi yirik olim—Ali Qushchini Ulug'bek "Ziji" ning so'zboshisida "farzandi arjumand", "aziz farzandim" deydi. Aslida u Ulug'bekning sadoqatli shogirdi bo'lib, "Zij" ustida ishlar poyoniga yetkazilgunga qadar ustoziga yordam bergan.

Ulug'bek astronomiya maktabi vakillarining tadqiqotlari natijasi bo'lgan buyuk meros — «Ziji jadidi Ko'ragoniy»dan keyingi yuz yillar mobaynida faqat Sharq emas, balki G'arb mamlakatlari ko'pgina yirik rasadxonalarining olimlari dasturul-amal sifatida keng foydalandilar.

2. Matematika faniga qo'shgan hissasi. Bu sohada asosan, trigonometrik jadval tuzishda katta yutuqlarga erishdi. U $\sin$ va $\cos$ funksiyalari uchun juda aniq hisob-kitoblar qilgan.

Uning trigonometriya bo'yicha kiritgan hissasi keying avlod olimlariga muhim manba sifatida xizmat qilgan.

3. Geografiya sohasidagi xizmatlari. Buyuk allomaning ishlari faqat astronomiya va matematikada bilan cheklanib qolmagan. U o'z davrining geologik bilimlarini ham mukammal egallagan va zamonaviy geografik xaritalar yaratishda ishtirok etgan. U Yevropa va Osiyodagi joylarning aniq kenglik va uzunliklarini aniqlash bo'yicha tadqiqotlar olib borgan.

4. Tarix faniga qo'shgan hissasi. Yaqin yillargacha Ulug'bek faqat astronom va matematik deb hisoblanar edi. Lekin uning ijodi serqirra bo'lib, u tarix, she'riyat va musiqa bobida ham qalam tebratgani aniqlandi. Tarixchi Mirzo Muhammad Haydar "Tarixiy Rashidiy" asarida "Mirzo Ulug'bek tarixnavis donishmand va "To'rt ulus tarixi"ni ham yozib qoldirgan edi", deb yozgan. Ulug'bekning turkiyda yozgan "Tarixi arba ulus" asari Chingizxon bosib olgan mamlakatlarning XIII-XIV asrlar birinchi yarmidagi siyosiy hayotini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Ulug'bek nafaqat olim, balki davlat arbobi sifatida ham mashhur edi. U otasining vafotidan so'ng Movarounnahr (O'rta Osiyo) hududlaida hukmronlik qilgan.

Hukmronlik yillarida Samarqand va boshqa ko'plab shaharlarda ilm-fan, madaniyat va hunarmandchilik taraqqiy etdi. Uning davlat boshqaruvidagi muvaffaqiyatlari ilmiy yutuqlaridan kamroq e'tirof etiladi, chunki u davlat ishlarida ba'zi ziddiyatlarga duch kelgan va bu holatlar keyinchalik uning o'limiga olib kelgan. 1449-yilda og'li Abdulatifning fitnasi tufayli Samarqanddan chiqib ketishga majbur bo'ladi va Qozog'iston yaqinida qatl etilgan. Uning vafoti bilan O'rta Osiyodagi ilmiy markaz sifatida Samarqandning o'рни pasayib ketdi.

Mirzo Ulug'bek zamonasining eng buyuk olimlaridan biri bo'lib, uning ilmiy merosi va kashfiyotlari bugungi kunda ham qadrlanadi. 630 yillik tavalludi munosabati bilan Ulug'bekning insoniyat ilmiy taraqqiyotiga qo'shgan ulkan hissasi haqida fikr yuritish va uni chuqurroq o'rganish muhimdir. Uning merosi ilm-fanning barcha sohalariga ta'sir qilib, keying avlod olimlariga ilhom baxsh etib kelmoqda.

Olim xotirasini abadiylashtirish maqsadida nafaqat mamlakatimizning bir qator hududlarida, balki Yevropa mamlakatlarida ham keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

Xususan:

- 1930- yilda tashkil etilgan Kitob Xalqaro Kenglik stansiyasiga Ulug'bek nomi berilgan;
- 1966-yilda O'zbekistonda Odil Yoqubovning romani asosida "Ulug'bek xazinasi" nomli ko'p qismli videofilm suratga olindi;
- . Ulug'bek tavalludining 600 yilligi 1994-yil aprelda Parijda;
- oktabrda Toshkent va Samarqandda tantanali ravishda nishonlandi va xalqaro konferensiyalar o'tkazildi.
- Shu yili Toshkentda Ulug'bekka atab haykal o'rnatildi.
- Ulug'bek siymosi Pulkovo rasadxonasi, Moskva universiteti konferenszallarida dunyodagi mashhur olimlarning portretlari qatoridan joy olgan. Samarqandda Ulug'bekning memorial muzeyi tashkil etilgan.
- "O'zbekiston milliy universiteti"ga 1995-yil Mirzo Ulug'bek nomi berildi.
- 2023-yilda Tuluza shahrida joylashgan Fransiya Fuqarolik milliy aviatsiyasi instituti hududida buyuk astronom olim, matematik va davlat arbobi Mirzo Ulug'bek haykali ochildi.

REFERENCES

1. Ahmedov Bo'riboy. O'zbekiston tarixi manbalari. T.: "O'qituvchi". 1991.
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2005.
3. X.O'. Samadov. "Mirzo Ulug'bekning jahon ilmu faniga qo'shgan hissasi".
4. Muxamedovna, G. M. (2024). PARANJI TARIXI, YOXUD O'RTA ASR AYOLLARINING KIYIMI HAQIDA.
5. Gadayeva, M. (2024). MARKAZIY OSIYODA JADID AYOLLARI TARIXI. *Modern Science and Research*, 3(12), 652-658.
6. Muxamedovna, G. M. (2024). Millatimiz Faxri-Buxoro Ma'rifatparvari. *Miasto Przyszłości*, 52, 557-562.
7. Muxamedovna, G. M. (2024). TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINING O'RNI. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 4(5), 97-102.
8. Mukhamedovna, G. M. (2024). The Sad Fate Of The Women Of Turkistan: About The "Hujum" Movement And Its Impacts On Agriculture. *SPAST Reports*, 1(7).
9. Muxamedovna, G. M. (2023). MAKTABLARDA TARIX FANINI O'QITISH AHAMIYATI. *Научный Фокус*, 1(5), 178-180.

10. Muxamedovna, G. M. (2023). TARIX FANINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI. *Научный Фокус*, 1(5), 175-177.
11. Sadullayev, U., Gadayeva, M., & Toshpo'latova, S. (2024). MAHALLA-QADRIYATLAR BESHIGI. *Modern Science and Research*, 3(12), 1228-1238.
12. Muxamedovna, G. M., Shuhratovna, T. S., & Shokir ogli, S. U. TARIX FANLARINI OQITISHDA MUZEYLARNING ORNI.
13. Gadayeva, M. (2024). MARKAZIY OSIYODA JADID AYOLLARI TARIXI. *Modern Science and Research*, 3(12), 652-658.
14. Toshpo'latova, S., Gadayeva, M., & Sadullayev, U. (2024). SHARQ ALLOMALARINING DIDAKTIK QARASHLARI. *Modern Science and Research*, 3(12), 985-993.
15. Gadayeva, M., & Ismoilova, Z. (2024). The Importance Of Studying The Science Of Youth Psychology In Improving People'S Lives. *Modern Science and Research*, 3(2), 676-683.
16. Gadayeva, M., & Hamroqulova, N. (2024). The Basis Of The Use Of Development-Pedagogical Skills In Pedagogical Activity. *Modern Science and Research*, 3(2), 684-689.
17. Gadayeva, M. (2024). ABOUT THE HISTORY OF THE VEIL OR MEDIEVAL WOMEN'S DRESS. *Modern Science and Research*, 3(2), 1097-1103.
18. Gadayeva, M. (2023). THE UNIQUE SIGNIFICANCE OF MASTERING SOCIAL SCIENCES DURING THE DEVELOPMENT OF THE NEW UZBEKISTAN. *Modern Science and Research*, 2(10), 459-464.
19. Universiteti, G. M. M. O. X. (2023). Uchinchi Renesans Davrida Ajdodlarimiz Merosini Organish Orqali Integratsion Ta'limni Yanada Takomillashtirish Tamoyillari: Часть 1 Том 1 Июль 2023 Год. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 1(1), 11-16.
20. Gadayeva, M. (2024). Attack Action. *Modern Science and Research*, 3(1), 1028-1033.
21. Gadayeva, M. (2024). Effective Ways To Use The" Thoughtstorm" Method On The Theme Of The" Eastern Renaissance" Era. *Modern Science and Research*, 3(1), 1024-1027.
22. Muxamedovna, G. M. (2023). KREATIV YONDASHUV ASOSIDA DIDAKTIK MATERIALLAR YARATISH MEXANIZMLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 21(3), 12-14.
23. Muxamedovna, G. M. (2023). Uchinchi renesans davrida ajdodlarimiz merosini organish orqali integratsion ta'limni yanada takomillashtirish tamoyillari. *Образование наука и инновационные идеи в мире*, 22(1), 35-38.

24. Muxamedovna, G. M. (2023). History Of Patriotic Women. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(12), 69-75.
25. Muxamedovna, G. M. (2023). Innovatsion TaLim-Buyuk Kelajak Poydevori. *World scientific research journal*, 17(1), 74-76.
26. Gadayeva, M. (2024). Effective Ways To Use The" Thoughtstorm" Method On The Theme Of The" Eastern Renaissance" Era. *Modern Science and Research*, 3(1), 1024-1027.
27. Muyiddinov, B. (2023). XII-XIII ASRLAR DAVRIDA BUXORODA ILM – FANNING RIVOJLANISHI. *SCHOLAR*, 1(28), 341–345. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10027071>
28. Muyiddinov Bekali. (2023). MO’G’ULLAR BOSQINI DAVRIDA BUXORONING AYANCHLI TAQDIRI. *TADQIQOTLAR.UZ*, 25(2), 212–215. Retrieved from <http://tadqiqotlar.uz/index.php/new/article/view/308>
29. Muyiddinov Bekali. (2023). THE ROLE OF BUKHARA AND OTHER CITIES IN THE MILITARY ART AND ARMY STRUCTURE OF KHOREZMSHAHS . ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 35(3), 55–58. Retrieved from <https://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/10035>
30. Muyiddinov, B. (2024). BARTHOLD'S "СОЧИНЕНИЯ. ТОМ I. ТУРКЕСТАН В ЭПОХУ МОНГОЛЬСКОГО НАШЕСТВИЯ" THE HISTORY OF THE CREATION OF THE WORK. *MODERN SCIENCE AND RESEARCH*, 3(1), 699–702. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10552555>
31. Muyiddinov, B. (2024). THE ROLE OF MILITARY REFORMS IN THE BUKHARA KHANATE IN THE LIFE OF THE STATE UNDER THE SHAYBANIDS. *MODERN SCIENCE AND RESEARCH*, 3(2), 646–648. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10668887>
32. MB Bahodir o’g’li. (2024). Military Art of Turkish Khaganate in the Early Middle Ages. *European Journal of Innovation in Nonformal Education*, 4(16), 223–227. <https://inovatus.es/index.php/ejine/article/view/2705/2586>
33. XORAZMSHOHIDLAR DAVLATI HAYOTIDA TURKON XOTUNNING O’RNI. (2024). *MEDICINE, PEDAGOGY AND TECHNOLOGY: THEORY AND PRACTICE*, 2(4), 463-469. <https://universalpublishings.com/index.php/mpttp/article/view/5192>
34. Muyiddinov Bekali Bahodir o’g’li. (2024). The coronation and campaigns of Alexander The Great. *МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА*, 2(5), 400–412. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11222912>

35. Muyiddinov Bekali. (2024). COVERAGE OF LEGAL ISSUES IN "AVESTO". МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА, 2(6), 222–230. <https://doi.org/10.5281/zenodo.12191420>
36. MUYIDDINOV BEKALI, & QORYOG'DIEV Z. (2022). ABOUT THE CONQUEST OF BUKHARA BY THE KHOREZMSHAHS. International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences, 2(3), 158–161. Retrieved from <https://www.ijpsss.iscience.uz/index.php/ijpsss/article/view/383>
37. Muyiddinov Bekali Bahodir o'g'li. (2024). History of State Institutions in the Kushan State, Which Founded Statehood on the Territory of Central Asia. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 4(9), 184–188. Retrieved from <https://inovatus.es/index.php/ejine/article/view/4070>
38. Bahodir o'g'li, M. B. (2024). Avesto is an Ancient Written Monument Containing Information About the Life of the Peoples of Central Asia. *Miasto Przyszłości*, 53, 970–975. Retrieved from <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/4982>
39. Toshpo'latova, S. (2025). FOROBIYNING DIDAKTIK QARASHLARI ASOSIDA O'QUVCHILARNI TARIX FANIGA QIZIQTIRISH METODIKASI. *Modern Science and Research*, 4(1), 177-186.
40. Toshpo'latova, S. (2024). TARIX FANINI O'QITISHDA SAMARALI METODLAR. *Modern Science and Research*, 3(11), 774-782.
41. Тошполатова, III. (2024). THE PRESENT IRANIANS. *Журнал универсальных научных исследований*, 2(5), 453-462.
42. Toshpo'latova, S. (2024). BUXORODAGI SAROYLAR. *Modern Science and Research*, 3(5), 522-529.
43. Toshpo'latova, S. (2024). O'RTA ASRLARDA OILA PEDAGOGIKASIGA OID FIKRLAR. *Modern Science and Research*, 3(12), 353-361.
44. Toshpo'latova, S., & Xudoyqulov, S. (2024). History And Ethnology Of Olot District. *Modern Science And Research*, 3(5), 148-151.
45. Toshpo'latova, S., & Jo'rayeva, M. (2024). HISTORY AND ARCHITECTURAL MONUMENTS OF JONDOR DISTRICT. *Modern Science and Research*, 3(2), 447-450.
46. Qizi, R. S. S., Shukhratovna, T. S., & Karamatovna, M. A. (2024). Implementation of Education and Protection of Children's Rights in the age of Technology. *SPAST Reports*, 1(7).

47. Shuhratovna, T. S. (2024). Linguistic Anthropology. *European Journal Of Innovation In Nonformal Education*, 4(3), 432-437.
48. Toshpo'latova, S. S., & Naimov, I. N. (2023). MS ANDREYEV–O'RTA OSIYO XALQLARI ETNOGRAFIYASINING YIRIK OLIMI. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(8), 1214-1222.
49. Toshpo'latova, S., & Tursuntoshova, S. (2024). Khoja Abdulkholiq Gijduvani. *Modern Science and Research*, 3(2), 87-93.
50. Toshpo'latova, S. (2024). Ethnolinguistics Of Ethnologies Of Bukhara. *Modern Science and Research*, 3(2), 1004-1011.
51. Toshpo'latova, S. (2024). Ethnolinguistics. *Modern Science and Research*, 3(2), 500-507.
52. Toshpo'latova, S. (2024). Religious Anthropology. *Modern Science and Research*, 3(1), 504-510.
53. Yuldosheva, F. (2024). MIRZO ULUG'BEK KUTUBXONASI VA BUGUNGI TAQDIRI. *Modern Science and Research*, 3(12), 741–749. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/-research/article/view/58564>
54. Yuldosheva, F. (2024). BOLA TUG'ILISHI BILAN BOG'LIQ MAROSIMLAR O'ZBEK XALQI HAYOTINING AJRALMAS QISMI SIFATIDA. *Modern Science and Research*, 3(11), 788–791. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/48058>
55. Yuldosheva F. Y. qizi. (2023). LEV NIKOLAYEVICH GUMILYOVNING “QADIMGI TURKLAR” ASARIDA KO'KTURKLAR YODGORLIKLARI XUSUSIDA. *GOLDEN BRAIN*, 1(16), 338–342. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/article/view/3908>
56. Yuldosheva F. (2025). MAHMUDXO'JA BEHBUDIY – MILLATNING O'Z TAQDIRINI ANGLASHIDA YORQIN YULDUZ VA MILLIY UYG'ONISH DAVRINING RAMZI. *Modern Science and Research*, 4(1), 420–427. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/60832>
57. Ярашова, М. . (2024). ЖАҲОН ЭТНОЛОГИЯСИ ФАНИ ВА УНИ ЎҚИТИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ МЕТОДОЛОГИЯСИ. *Modern Science and Research*, 3(10), 362–368. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/44901>
58. Ярашова, М. (2024). БУХОРО ВОҲАСИДА МАТО ВА МАТО ТАЙЁРЛАШ УСУЛЛАРИ. *Modern Science and Research*, 3(11), 782–787. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/48057>

59. Yarashova Mohlaroyim Shuhratovna. (2024). Muyiddin Ibn Arabiyning Tasavvuf Ta'limotida Tahsil Olgan Ayol Ustozlari Va Ta'lim Bergan Ayol Shogirdlari. *Miasto Przyszłości*, 52, 622–625. Retrieved from <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/4679>
60. Yarashova, M. (2024). ILK O'RTA ASR MANBALARIDA KIYIM-KECHAKLAR VA ULAR BILAN BOG'LIQ ATAMALAR TAVSIFI. *Modern Science and Research*, 3(12), 621–632. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/58456>
61. Ярашова, М. (2025). ПАРАНЖИ ВА УНИНГ ЎРГАНИЛИШ ТАРИХИ. *Modern Science and Research*, 4(1), 160–168. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/60323>